

OILA-VATAN ICHRA KICHIK VATANDIR.

Ahmedov Farxod Saydaliyevich

Podpolkovnik Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli
o'qituvchisi. +99899 822 63 27

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila-vatan ichra kichik vatandir to'g'risida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Таянч сўзлар: Конституция, республика, оила, никоҳ, Ватан.

Аннотация: в данной статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по обустройству малой родины в рамках семьи-Родины-матери.

Ключевые слова: Конституция, Республика, семья, брак, Родина.

Annotation: this article provides scientifically based suggestions and recommendations on a small homeland within the family-Homeland.

Base words: Constitution, Republic, family, marriage, Homeland.

Oila – har bir inson hayotining beshigi, mehr va muhabbat maskani, insonparvarlikning ilk darsxonasidir. Inson avvalo oilada Vatanga muhabbatni, mehnatsevarlikni, insonparvarlikni o'rganadi. Shu bois ham xalqimiz “Oila – Vatan ichra kichik Vatandir” deb bejiz aytmagan. Chunki oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oiladagi tinchlik va totuvlik, mehr va samimiyat butun mamlakat ravnaqiga ta'sir etadi. Demak, har bir baxtli va sog'lom oila – Vatan ravnaqining, yurt kelajagining garovidir.

Oila deganimizda ko'z oldimizga ota-ona, farzandlar, bobo-buvilar va bir xonadonda yashovchi boshqa shaxslar keladi. Oila katta-kichik bo'lishi mumkin. Masalan, ota-ona, farzandlari, kelinlari va bir nechta nabiralari, yoki ota-ona va bitta farzand bo'lishi mumkin. Oila-vatan ichra kichik vatandir.

Oila — bu nafaqat qon-qarindoshlik bog'lovchi muhit, balki insonning ilk tarbiyasi va ma'naviy dunyosi shakllanadigan muqaddas maskandir. Farzandlar ota-onasi orqali mehr, sadoqat, insof va Vatanga muhabbat tuyg'ularini o'zlashtiradilar. Agar oilada muhit sog'lom bo'lsa, bola ham sog'lom fikrlaydigan, yurtini sevuvchi inson bo'lib yetishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», — dedi u³.

³ Manba. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

Oiladagi tinchlik va totuvlik mamlakatdagi barqarorlikning asosidir. Chunki har bir oila jamiyatning bir bo'lagi, har bir farzand esa ertangi yurt taqdirining egasidir. Shuning uchun ham har bir oilada Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik, halollik va birdamlik ruhi ustuvor bo'lishi lozim. Shundagina xalqimiz ma'naviy va moddiy jihatdan yuksaladi.

“Oila – Vatan ichra kichik Vatandir” degan so'zlarda chuqur ma'no mujassam: oila qanday bo'lsa, Vatan ham shunday bo'ladi. Agar har bir oilada mehr va vafo hukm sursa, butun mamlakat tinch va farovon yashaydi.

Bizning mamlakatimizda oila-muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish huquqiga ega” deb ta'kidlangan. Konstitutsiya belgilagan ijtimoiy tuzum bilan oila o'rtasida uzviy bog'lanish mavjud.

78-moddasida Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Xalqimiz yangi oila barpo bo'lar ekan, uni ikki yoshga, ya'ni yangi er-xotinlarga tashlab qo'ymaydi. Yangi oilaga ota – onalar, qarindoshlar, mahalla, joylardagi xotin-qizlar ko'mitalari, “Oila” ilmiy-amaliy markazi, shuningdek mutasaddi tashkilotlar ham e'tibor qaratadi. Ya'ni bizning davlatimizda oila masalasiga davlat siyosati darajasida qarab kelinmoqda.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq oilaga katta e'tibor qaratildi. 1998-yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e'lon qilindi.

Shu yili mamlakatimizda qurilayotgan insonparvar demokratik davlat vazifalarini bajarishga, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etishga qaratilgan normalarni o'zida aks ettirgan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevralda qabul qilgan qarori bilan O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar ko'mitasi huzurida Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi.

Bundan asosiy maqsad jamiyat taraqqiyotida ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni avaylab asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilalarning mustahkamligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini

oshirish muammolarini ilmiy o'rganishni va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishni muvofiqlashtirishdan iborat .

G'arb mamlakatlarida bo'layotgan noxushliklarga sabab, shu mamlakatning ma'naviy tanazzulga uchragani, milliy qadriyatlariga e'tiborsizliklari, eng achinarlisi, oilaga munosabatning izdan chiqqanidir.

Eng avvalo, oilada sog'lom ma'naviy muhit, oila a'zolarida o'zaro hurmat-ehtirom ruhini yaratish, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish, yoshlarimiz ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish asosiy vazifamiz bo'lib qolishi lozim.

Islom olamining buyuk muhaddisi Imom Buxoriy:

“Ota-onaga yaxshilik qilish — Allohga yaqinlikka eltuvchi eng go'zal yo'ldir”, — deb ta'kidlagan. Bu fikrdan oilaviy muhabbat va itoat Allohga yaqinlashtiruvchi eng ulug' amal ekanini anglash mumkin.

Imom Termiziy esa shunday degan:

“Eng yaxshi inson — oilasiga eng ko'p naf keltirgan insondir.” Bu so'z insonning haqiqiy fazilati uning oilasiga bo'lgan munosabatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy esa oilaning ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha izohlaydi:

Oila jamiyatning bosh hujayrasi. Undagi tarbiya va totuvlik butun davlatning barqarorligiga zamin yaratadi. Ya'ni, har bir oila jamiyatning barqarorligi va davlatning mustahkamligida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning fikrida ham oilaning ma'naviy qiymati chuqur aks etgan:

“Oilada muhabbat va vafo bo'lsa, dunyo go'zaldir.” Navoiy uchun oila nafaqat shaxsiy baxt manbai, balki butun insoniyatning tinchligi va go'zalligining asosidir.

Shifokor va olim Ibn Sino esa otaonaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatiga e'tibor qaratgan:

Sharqning buyuk so'fiy shoiri Jaloliddin Rumiy shunday degan:

“Bola tarbiyasi ota-ona muhabbati bilan boshlanadi. Shu muhabbat unda insoniylikni shakllantiradi.” Bu fikrlardan ma'lumki, mehr va e'tiborsiz tarbiyaning samarasi bo'lmaydi.

“Oila – dillar bog'i. Unda mehr urug'ini sepsang, mehr mevasini terasan.” Bu misralar oiladagi munosabatlar qanday bo'lsa, uning natijasi ham shunday bo'lishini anglatadi.

Qadim xitoy mutafakkiri Konfutsiy esa oilaviy tarbiyani jamiyat tinchligi bilan bog'lagan:

“Oilangni tuzat, so'ng jamiyatni tuzat. Chunki yurt tinchligi – oila tinchligidan boshlanadi.”

Hind faylasufi Mahatma Gandi ham shunday fikr bildiradi:

“Dunyo tinchligi har bir oiladagi tinchlikdan boshlanadi.”

Bu so'zlar har bir oilaning jahon tinchligidagi ulkan mas'uliyatini anglatadi.

Yurtdoshlarimiz bir-biri bilan uchrashganda oilangiz tinchmi, bola-chaqangiz omonmi, hamma salomatmi deya hol - ahvol so'raydilar. Xalqimiz oilani asrashni azaldan muqaddas vazifalardan biri, deb bilishlari bejiz emas. Bu tuyg'u necha asrlar davomida

avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Kuzatgan bo'lsangiz, endigina tetapoya bo'layotgan o'g'il - qizlar ham oila a'zolarini darhol ajratib olib, ularga taqlid qila boshlaydi.

Oila qanchalar muqaddas maskan ekani ularning ongiga bolaligidanoq muhrlanib boradi. Shu bois ham ayrim mamlakatlarda uchrayotgani kabi yurtimizda qonunlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarib, farzand tarbiyasi va tug'ilishni nazorat qilishga hojat yo'q. Urf - odat va an'analarimiz, madaniyatimizdan ozuqa olgan o'g'il - qizlarimizning fitratiga yoshliklaridan ota-onalariga ko'mak berish, so'ngra o'z oilalari uchun qayg'urish hissi singib boradi.

Zero, muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Keksalarning ibratli hayot yo'li, o'g'itlari, yillar silsilasida toblangan tajribasi yoshlarimizning to'g'ri yo'lni tanlashlarida yo'lboshchi vazifasini o'tamoqda.

Mamlakatimizda oila mustahkamligini ta'minlash, ayniksa, yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida muhtaram Prezidentimiz raxnomaligida keng miqyosli ishlar olib borilmoqda.

Oila tushunchasi hamisha Davlatimiz tomonidan ham, xalkimiz tomonidan ham diqqat - e'tiborda bo'lib kelgan va bundan keyin bosh siyosati bo'lib qolaveradi. Shu bois Mustaqillikka erishganimizdan keyin yillarning nomlanishida oilalarning farovonligini yanada oshirishiga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, yillarning "Sog'lom avlod yili", "Xomiylar va shifokorlar yili", "Oila yili", "Mustahkam oila yili" deb atalishi bejiz emas.

2011-yilda oilaviy korxona asoslari to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi ham katta muxim vokea bo'lgan. Sababi har bir oilada biznesni tashkil qilish ko'p va sifatli mahsulot ishlab chikarish va sotishning qonuniy asoslari belgilab berilgan.

Oilani mustahkamlash dunyo miqyosida bosh masala darajasiga ko'tarilgan muammolardan biridir.

Oilalar ahilligi va mustahkamligiga erishish maqsadida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambliyasi 1993-yil 20-sentyabrdagi yig'ilishida 15-mayni har yili "Xalkaro oila kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qilgan. Shundan buyon butun dunyoda, jumladan yurtimizda ham "Xalkaro oila kuni" keng nishonlanib kelinmoqda.

O'tgan yillar mobaynida yurtimizda oila tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni masalalariga alohida e'tibor qaratilib, barcha huquqiy asoslar yaratilganini ta'kidlashimiz lozim. Ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatlari, salomatligini himoya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyamizning 14-bobida ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Oila kodeksi va boshqa qonunlar orqali yosh va ko'p bolali ayollarni ishga qabul qilishda imtiyozlar belgilangan.

Yangi oila qurayotgan yoshlarning tibbiy ko'rikdan o'tayotgani, xomilador ayollar, bolalarning bepul tibbiy xizmatdan foydalanayotgani oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmokda.

Oila – jamiyat tayanchi. Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, oila sog’lom ekan - jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakatimizda tinchlik, farovonlik, to’kinlik barqarordir.

Inson o’z xayotida xamma vaqt oilaga, vatanga, do’st-brodarlariga sodiq bo’lib yashashi kerak. Oilaga sodiq bo’lmaslik odamda shu xonadondan, qarindosh-urug’laridan uzoqlashtiradi. Biz yuqorida oilani mitti mamlakatga o’xshatdik. Xar qanday mamlakatning boshlig’i bo’lganidek, oilaning o’z boshlig’i bo’ladi.

Odatda, oila boshlig’i bu otadir. Ota bo’lmagan oilada ona, ota va ona bo’lmagan oilada esa katta aka, opa yoki oila a’zolari tomonidan tan olingan kishi boshliq sanaladi. Oila boshlig’i kim bo’lishidan kat’iy nazar, uning so’zlari shu oila a’zolari uchun qonun bo’lmogi kerak. Oila boshlig’ining xurmati joida bo’lib, o’z oila a’zolariga munosib raxbarlik qila olsagina, oilada tartib –intizom, mexnat va orom, o’zaro xurmat va odob-axloq buladi.

Oila mustaxkam va obro-e’tiborli bulishi uchun, oila boshligining obro-e’tibori o’z o’rnida bo’lib, oilaning iqtisodiy axvolini, uning daromadini va buromadini tug’ri tashkil qilmogi lozim. Oilada nimalar yetishtirishni, qanday daromat olishni, uni qanday sarf qilishni yaxshi bilishi, oilada a’zolari o’rtasidagi inoqlikni ta’min etishi va ularning tarbiyasi uchun g’amxo’rlik qilib borishi zarur. inson bolalikdan boshlanadi va asta – sekin voyaga yetib boradi, mustaqil oila quradi.

Xar bir ota-ona o’z farzandini voyaga yetishi, uning uyli-joyli bo’lib, mustaqil oila qurishini orzu qiladi. Mustaqil oila qurish, ota-ona bo’lish xar bir o’gil qiz uchun sharaflı vazifadir. Oila qurayotgan xar bir yosh oila xayotga xar taraflama aqliy va jismoniy jixatdan tayyor bulmog’i kerak.

Xulosa qilib aytganda, oila – insonning ilk maktabi, Vatanning eng kichik, ammo eng muhim bo’g’inidir. Oiladagi muhabbat, totuvlik va sog’lom muhit yurt ravnaqiga xizmat qiladi. Shu sababdan, har bir inson o’z oilasini asrab-avaylashi, unda mehr va qadriyat ruhini mustahkamlashi zarur. Chunki baxtli oila – kuchli davlatning asosi, obod Vatanning muqaddas ustunidi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T:O’zbekiston, 2023-y.;
2. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2024. – Lex.uz.;
3. O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi. – T., 2024. – Lex.uz.;
4. O’zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi T:O’zbekiston, 2023-y – Lex.uz.;
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 9-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan “Sog’lom ona va bola yili” Davlat dasturi.